



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 72 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education.....	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?.....	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida.....	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari.....	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi.....	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.....	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli.....	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi.....	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	

INTEGRATIV TA'LIM TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK GEOGRAFIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna

Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodik jihatlarini yoritilgan. Geografik bilimlarni tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, pedagogik va raqamli yo'nalishlar bilan uyg'unlashtirishning bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligiga ta'siri tahlil qilingan. Integrativ ta'limni tashkil etishda fanlararo loyihalar, muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, dala tadqiqotlari, geoinformatsion tizimlar, interaktiv xaritalar va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, mazkur texnologiyalarning geografik tafakkur, fazoviy tahlil, tadqiqotchilik, kommunikativ, metodik, raqamli va refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslangan. Integrativ mashg'ulotlarni loyihalash, amaliy topshiriqlarni real geografik muammolar bilan bog'lash hamda kompetensiyalarni mezonli baholash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak geografiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining amaliy yo'nalganligi, fanlararo izchilligi va kasbiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: integrativ ta'lim, geografiya ta'limi, kasbiy kompetensiya, bo'lajak geografiya o'qituvchisi, fanlararo integratsiya, pedagogik texnologiyalar, geoinformatsion tizimlar, fazoviy tafakkur, loyiha metodi, refleksiv baholash.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological aspects of developing the professional competencies of prospective geography teachers through integrative educational technologies. It analyzes how combining geographical knowledge with natural sciences, socioeconomic disciplines, environmental studies, pedagogy, and digital technologies influences the professional preparation of future specialists. The article explores the potential of interdisciplinary projects, problem-based and collaborative learning, field research, geographic information systems, interactive maps, and digital educational resources in organizing integrative instruction. The significance of these technologies in developing geographical thinking, spatial analysis, research, communication, methodological, digital, and reflective competencies is substantiated. Methodological recommendations are proposed for designing integrative lessons, connecting practical assignments with real geographical problems, and applying criterion-based assessment to professional competencies. The research findings can contribute to strengthening the practical orientation, interdisciplinary coherence, and professional effectiveness of prospective geography teacher training at pedagogical higher education institutions.

Key words: integrative education, geography education, professional competence, prospective geography teacher, interdisciplinary integration, pedagogical technologies, geographic information systems, spatial thinking, project-based learning, reflective assessment.

Аннотация: В статье освещены теоретико-методические аспекты развития профессиональных компетенций будущих учителей географии на основе интегративных образовательных технологий. Проанализировано влияние объединения географических знаний с естественно-научными, социально-экономическими, экологическими, педагогическими и цифровыми направлениями на профессиональную подготовку будущих специалистов. Раскрыты возможности применения междисциплинарных проектов, проблемного и совместного обучения, полевых исследований, геоинформационных систем, интерактивных карт и цифровых образовательных ресурсов при организации интегративного обучения. Обосновано значение данных технологий в развитии географического мышления, пространственного анализа, исследовательских, коммуникативных, методических, цифровых и рефлексивных компетенций. Разработаны методические рекомендации по проектированию интегративных занятий, связыванию практических заданий с реальными географическими проблемами и критериальному оцениванию компетенций. Результаты исследования способствуют повышению практической направленности, междисциплинарной последовательности и профессиональной эффективности подготовки будущих учителей географии в педагогических высших учебных заведениях.

Ключевые слова: интегративное обучение, географическое образование, профессиональная компетенция, будущий учитель географии, междисциплинарная интеграция, педагогические технологии, геоинформационные системы, пространственное мышление, метод проектов, рефлексивное оценивание.



KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni faqat muayyan fan doirasidagi bilimlar bilan qurollantirish yetarli hisoblanmaydi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi, globallashtirish, ekologik muammolarning keskinlashuvi, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi va mehnat bozoridagi talablarning o'zgarishi pedagog kadrlar tayyorlash mazmunini yangilashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, geografiya o'qituvchisi tabiat, jamiyat, iqtisodiyot, aholi, hududiy rivojlanish va ekologik jarayonlar o'rtasidagi murakkab aloqalarni yaxlit holda tushuntira olishi zarur. Shu sababli bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini integrativ ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish pedagogika oliy ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Geografiya o'z mazmuniga ko'ra tabiiy va ijtimoiy fanlarni o'zaro bog'lovchi integrativ xususiyatga ega. Iqlim o'zgarishi, suv resurslaridan foydalanish, urbanizatsiya, migratsiya, hududiy tafovutlar, tabiiy xavflar hamda barqaror rivojlanish kabi masalalarni faqat bitta fan nuqtayi nazaridan o'rganish yetarli natija bermaydi. Ularni chuqur anglash uchun geografik bilimlarni ekologiya, biologiya, tarix, iqtisodiyot, sotsiologiya, matematika, informatika va pedagogika bilan uyg'unlashtirish talab qilinadi. Integrativ ta'lim texnologiyalari ana shunday aloqalarni o'quv jarayonida maqsadli tashkil etish, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash va talabalarda tizimli tafakkurni shakllantirish imkonini beradi.

Kasbiy kompetensiya bo'lajak o'qituvchining fan bo'yicha bilimlari, metodik tayyorgarligi, pedagogik mahorati, raqamli savodxonligi, kommunikativ qobiliyati, tadqiqotchilik faoliyati va refleksiv yondashuvini birlashtiruvchi murakkab tuzilma hisoblanadi. Integrativ texnologiyalar mazkur komponentlarni alohida emas, balki o'zaro bog'langan holda rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammoli ta'lim, loyiha metodi, hamkorlikda o'qitish, dala mashg'ulotlari, keyslar, geoinformatsion tizimlar, masofadan zondlash ma'lumotlari va interaktiv xaritalardan foydalanish talabalarining mustaqil fikrlashi hamda kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorligini kuchaytiradi.

O'zbekiston pedagogika oliy ta'lim muassasalarida geografiya yo'nalishi talabalarini tayyorlashda nazariya va amaliyot birligini ta'minlash, fanlararo aloqalarni mustahkamlash hamda raqamli vositalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq integrativ mashg'ulotlarni loyihalash tajribasining yetarli emasligi, fanlar mazmunining o'zaro muvofiqlashtirilmagani va kompetensiyalarni baholash mezonlarining to'liq ishlab chiqilmagani bu imkoniyatlardan foydalanishni cheklashi mumkin. Mazkur maqolaning maqsadi integrativ ta'lim texnologiyalarining bo'lajak geografiya o'qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash, samarali metodlarni tizimlashtirish hamda pedagogik jarayonni takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalarni asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Integrativ ta'lim va bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli nazariy-metodik yo'nalishlarda o'rganilgan ^[1].

S. M. Drake integratsiyalashgan o'quv dasturlarini ta'lim standartlari, fan mazmuni, o'qitish metodlari va baholash vositalari bilan uyg'unlashtirish mexanizmlarini yoritib, fanlararo ta'limni loyihalashning metodik asoslarini ishlab chiqqan ^[2].

J. Deweyning tajriba va faoliyatga asoslangan ta'lim haqidagi qarashlari geografik bilimlarni real muammolarni o'rganish orqali egallash zarurligini asoslaydi ^[3].

L. S. Vygotsky ta'lim jarayonida ijtimoiy hamkorlik, muloqot va pedagogik ko'makning ahamiyatini ko'rsatgan bo'lsa, H. Gardnerning ko'p qirrali intellekt nazariyasi talabalarining individual bilish imkoniyatlarini integrativ topshiriqlar orqali rivojlantirishga metodologik asos yaratadi. K. Stock, P. Cola va D. Kolb tajribaviy ta'lim samaradorligini talabaning o'quv faoliyatidagi bevosita va faol ishtiroki bilan bog'laydi ^[4].

Mahalliy tadqiqotlarda integrativ yondashuvning geografiya o'qituvchilarini tayyorlashdagi imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilgan. H. Vahobov, N. R. Alimqulov va N. B. Sultanova geografiya o'qitish metodikasi, fanlararo aloqalar, kartografik vositalar hamda amaliy mashg'ulotlarning didaktik xususiyatlarini tizimli bayon qilgan.

Sh. Usmonqulov va N. O. Temirov integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish shartlari, bosqichlari va metodlarini tadqiq etgan ^[5].

X. N. Amonov geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda zamonaviy metodlar va texnologiyalarning o'rnini asoslagan. F. T. Rajabov esa bo'lajak geografiya o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish, fanlararo integratsiyaga tayyorligini kuchaytirish va pedagogik jarayonni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish masalalarini yoritgan ^[6].

G. O. Ochilova va S. Sh. Akbarova kasbiy kompetentlikning mazmuni hamda tarkibiy qismlarini tavsiflagan. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi esa geografiya, astronomiya, geodeziya va matematika o'rtasidagi tarixiy integratsiyaning muhim namunasi bo'lib xizmat qiladi. Mazkur manbalar integrativ texnologiyalarni geografik ta'limga tizimli joriy etish uchun yetarli nazariy-metodik zamin yaratadi ^[7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini integrativ ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish jarayonini o'rganishga qaratilgan nazariy va amaliy metodlar majmuasidan foydalanildi. Metodlarni tanlashda geografiya ta'limining fanlararo xususiyati, pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlik mazmuni hamda integrativ mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatlari hisobga olindi. Dastlab pedagogik integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktiv ta'lim, tizimli fikrlash va tajribaga asoslangan o'qitish konsepsiyalariga oid ilmiy manbalar nazariy tahlil qilindi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning qarashlarini qiyoslash orqali integrativ texnologiyalarning mazmuni, didaktik vazifalari va kasbiy kompetensiyalarga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari aniqlashtirildi^[8].

Kontent-tahlil metodi yordamida geografiya yo'nalishidagi o'quv rejalari, fan dasturlari, o'quv topshiriqlari va metodik materiallarda fanlararo aloqalarning ifodalanish darajasi o'rganildi. Geografiya fanlarining ekologiya, biologiya, iqtisodiyot, tarix, matematika va axborot texnologiyalari bilan bog'lanishi mazmunijihatdan tahlil qilindi. Tizimlashtirish va tasniflash metodlari asosida integrativ ta'lim texnologiyalari muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, hamkorlikda o'qitish, keys-stadi, dala tadqiqotlari, geoinformatsion modellashtirish va raqamli kartografiya kabi guruhlariga ajratildi. Har bir texnologiyaning predmetga oid, metodik, tadqiqotchilik, kommunikativ, raqamli va refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari belgilandi.

Modellashtirish metodi orqali integrativ mashg'ulotning maqsad, mazmun, faoliyat, texnologik va baholash komponentlaridan tarkib topgan tuzilmasi ishlab chiqildi. Mazkur tuzilmada geografik muammoni aniqlash, unga oid fanlararo ma'lumotlarni izlash, hududiy dalillarni tahlil qilish, raqamli xarita yoki model yaratish, yechim ishlab chiqish va natijalarni refleksiv baholash bosqichlari nazarda tutildi. Amaliy topshiriqlarni ishlab chiqishda mahalliy geografik sharoitga oid suv resurslari, cho'llanish, urbanizatsiya, aholi joylashuvi, ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalaridan foydalanish tamoyili asos qilib olindi.

Kuzatish, suhbat va faoliyat mahsullarini tahlil qilish metodlari integrativ topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarning mustaqilligi, jamoada ishlashi, dalillarni izohlashi va texnologik vositalardan foydalanishini baholashga yo'naltirildi. Baholash jarayonida motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyatli va refleksiv mezonlar qo'llanildi. Motivatsion mezon kasbiy qiziqish va tashabbuskorlikni, kognitiv mezon fanlararo bilimlarning yaxlitligini, amaliy mezon geografik muammolarni hal qilish ko'nikmalarini, refleksiv mezon esa o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatini ifodaladi. Olingan ma'lumotlarni umumlashtirishda qiyosiy tahlil, pedagogik interpretatsiya hamda sifat ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari integrativ ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini o'zaro bog'liq holda rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Integrativ mashg'ulotlarda talabalar geografik hodisalarni faqat alohida tushunchalar orqali emas, balki tabiiy, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar birligi asosida tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Natijada ularda hududiy jarayonlarning sabab va oqibatlarini aniqlash, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni qiyoslash, muammoga bir nechta ilmiy nuqtayi nazardan yondashish hamda dalillarga asoslangan yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalari rivojlandi.

Muammoli ta'lim va keys-stadi texnologiyalari talabalarning geografik vaziyatlarni mustaqil o'rganish faolligini oshirdi. Suv tanqisligi, cho'llanish, tuproq degradatsiyasi, urbanizatsiya, migratsiya va tabiiy xavflarga doir topshiriqlarni bajarish jarayonida geografik bilimlar ekologiya, iqtisodiyot, demografiya va axborot texnologiyalariga oid ma'lumotlar bilan uyg'unlashtirildi. Talabalar muammoning hududiy xususiyatlarini aniqlash, statistik ko'rsatkichlarni sharhlash va mavjud omillar o'rtasidagi bog'lanishlarni asoslashga intildilar. Bu jarayon ularning predmetga oid bilimlari bilan bir qatorda tadqiqotchilik va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Loyiha va hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining qo'llanishi kommunikativ hamda tashkiliy kompetensiyalarning shakllanishini ta'minladi. Guruhij loyihalarda vazifalarni taqsimlash, ma'lumotlarni birgalikda tahlil qilish, natijalarni muhokama etish va taqdim qilish orqali talabalar kasbiy muloqot, o'zaro mas'uliyat va jamoaviy qaror qabul qilish tajribasini egalladilar. Dala tadqiqotlari esa nazariy bilimlarni real hududiy sharoit bilan bog'lash, kuzatish olib borish, birlamchi ma'lumotlarni to'plash va ularni pedagogik maqsadda qayta ishlash ko'nikmalarini mustahkamladi^[9].

Geoinformatsion tizimlar, raqamli xaritalar va masofadan zondlash materiallaridan foydalanish raqamli kompetensiyaning rivojlanishida muhim natija berdi. Talabalar geografik obyektlarni elektron xaritada tasvirlash, fazoviy ma'lumotlarni qatlamlar asosida tahlil qilish, hududiy tafovutlarni aniqlash va vizual materiallar yaratish imkoniyatlarini o'zlashtirdilar. Shu bilan birga, tayyorlangan raqamli mahsulotlarni dars maqsadlariga moslashtirish ularning metodik kompetensiyasini kuchaytirdi.



Mezonli baholash va refleksiv topshiriqlar talabalarga o'z faoliyatidagi yutuq hamda kamchiliklarni aniqlash imkonini berdi. Integrativ jarayonda kasbiy kompetensiyaning motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyatli va refleksiv tarkibiy qismlari bir-birini to'ldirishi aniqlandi. Eng samarali natija fanlararo mazmun real geografik muammo, raqamli vosita, hamkorlikdagi faoliyat va aniq baholash mezonlari bilan yagona didaktik tizimda birlashtirilgan mashg'ulotlarda namoyon bo'ldi. Bu esa integrativ texnologiyalarni bo'lajak geografiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga izchil tatbiq etish zarurligini ko'rsatadi ^[10].

Olingan natijalar integrativ ta'lim texnologiyalari bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini alohida bilim va ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki yaxlit faoliyat tizimi sifatida rivojlantirishini ko'rsatadi. Bu holat integrativ yondashuvning ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, raqamli vositalar va baholash jarayonini umumiy kasbiy maqsad asosida birlashtirishi bilan izohlanadi. Geografiya tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlar kesishgan nuqtada joylashgan fan bo'lgani sababli integratsiya uning ichki mantiqiga mos keladi. Biroq fanlararo mazmunning oddiy qo'shilishi hali integrativ ta'limni anglatmaydi. Haqiqiy integratsiya turli fanlarga oid bilimlar muayyan geografik muammoni anglash va hal etishga yo'naltirilgandagina yuzaga keladi.

Tadqiqot natijalari konstruktiv ta'lim va tajribaga asoslangan o'qitish g'oyalari muvofiqdir. Talaba tayyor ma'lumotni eslab qolishdan ko'ra, muammoni mustaqil o'rganish, dalillarni qiyoslash, xaritalar tuzish va muqobil yechimlarni asoslash jarayonida kasbiy bilimni faol ravishda shakllantiradi. Ayniqsa, dala tadqiqotlari va hududiy loyihalar nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi uzilishni kamaytiradi. Mahalliy ekologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan foydalanish mashg'ulot mazmunini talabalarning hayotiy tajribasiga yaqinlashtirib, kasbiy motivatsiyani kuchaytiradi.

Geoinformatsion tizimlarning integrativ ta'limdagi roli oddiy texnik vosita bilan cheklanmaydi. GIS yordamida tabiiy, demografik, iqtisodiy va ekologik ma'lumotlarni bir xaritada birlashtirish talabalarga fazoviy qonuniyatlarni aniqlash hamda murakkab hududiy munosabatlarni ko'rgazmali ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyani bilishning o'zi yetarli emas. Bo'lajak o'qituvchi undan didaktik maqsadga muvofiq foydalanishi, ma'lumotlarning ishonchligini tekshirishi va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos topshiriqlar yaratishi lozim ^[11].

Integrativ texnologiyalarni pedagogika oliy ta'lim muassasalarida qo'llash ayrim tashkiliy va metodik qiyinchiliklarni ham yuzaga chiqaradi. Fan dasturlarining o'zaro muvofiqlashtirilmagani, o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikning sustligi, vaqtning cheklanganligi, raqamli infratuzilma va metodik materiallarning yetishmasligi integratsiya samaradorligini pasaytirishi mumkin. Bundan tashqari, guruhli loyihalarda talabalarning ishtiroki teng bo'lmasligi yoki texnologik vosita mashg'ulot maqsadidan ustunlashib ketishi ehtimoli mavjud. Shu sababli integrativ topshiriqlarda vazifalarni aniq taqsimlash, bosqichma-bosqich metodik ko'rsatma berish va individual hissani baholash zarur.

Mazkur yondashuvni samarali joriy etish uchun geografiya, pedagogika, ekologiya va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining hamkorligini yo'lga qo'yish, integrativ modullarni o'quv dasturlariga kiritish hamda professor-o'qituvchilarning GIS va loyiha ta'limi bo'yicha malakasini oshirish maqsadga muvofiqdir. Kompetensiyalarni baholashda esa test natijalari bilan cheklanmay, loyiha mahsuloti, raqamli xarita, dala hisoboti, taqdimot va refleksiv tahlilni qamrab oluvchi kompleks mezonlardan foydalanish talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Geografiya fanining tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jarayonlarni o'zaro bog'liqlikda o'rganishi integrativ yondashuvni mazkur yo'nalishdagi kasbiy tayyorgarlikning zarur metodologik asosi sifatida belgilaydi. Integrativ ta'lim talabalarga turli fanlardan o'zlashtirilgan bilimlarni yagona tizimga keltirish, geografik muammolarning sabab va oqibatlarini kompleks tahlil qilish hamda nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida muammoli ta'lim, loyiha metodi, hamkorlikda o'qitish, keys-stadi, dala tadqiqotlari, geoinformatsion modellashtirish va raqamli kartografiya bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishiga samarali ta'sir ko'rsatadigan texnologiyalar sifatida aniqlandi. Ushbu texnologiyalar geografik va fazoviy tafakkurni shakllantirish bilan birga, talabalarning metodik, tadqiqotchilik, kommunikativ, raqamli hamda refleksiv kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, real hududiy muammolarga asoslangan topshiriqlar talabalarning kasbiy motivatsiyasini oshiradi, mustaqil qaror qabul qilish va dalillarga asoslangan takliflar ishlab chiqish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Integrativ mashg'ulotlarning samaradorligi ularning aniq maqsad asosida loyihalashtirilishi, fanlararo mazmunning mantiqiy uyg'unlashtirilishi va faoliyat natijalarining mezonlar asosida baholanishiga bog'liq. Fanlarga oid ma'lumotlarni mexanik ravishda birlashtirish kutilgan pedagogik samarani bermaydi. Har bir integrativ topshiriq muayyan geografik muammoni o'rganish, amaliy mahsulot yaratish va egallangan bilimlarni yangi sharoitda qo'llashga yo'naltirilishi lozim. Bunda raqamli xarita, loyiha ishlanmasi, dala tadqiqoti hisoboti, hududiy tahlil yoki metodik dars modeli kabi natijaviy mahsulotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir ^[12].



Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida mazkur yondashuvni izchil joriy etish uchun o'quv dasturlaridagi fanlararo aloqalarni kuchaytirish, integrativ modullarni ishlab chiqish va kafedralar o'rtasidagi metodik hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Professor-o'qituvchilarning GIS, raqamli ta'lim resurslari, loyiha metodikasi va kompetensiyaviy baholash bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish ham muhimdir. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarining raqamli infratuzilmasini takomillashtirish, mahalliy geografik ma'lumotlar bazasini yaratish hamda talabalarni dala va loyiha tadqiqotlariga keng jalb qilish talab etiladi.

Kasbiy kompetensiyalarni baholashda motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyatli va refleksiv mezonlarning o'zaro birligi ta'minlanishi kerak. Bunday kompleks baholash talabani nafaqat geografik bilimlarini, balki mazkur bilimlardan pedagogik faoliyatda foydalanish, jamoa bilan hamkorlik qilish, raqamli vositalarni tanlash va o'z tajribasini tanqidiy tahlil etish qobiliyatini ham aniqlash imkonini beradi. Integrativ ta'lim texnologiyalarining tizimli qo'llanishi natijasida zamonaviy geografik bilimlarga, pedagogik mahoratga, innovatsion fikrlashga va kasbiy o'zini rivojlantirishga tayyor bo'lgan raqobatbardosh geografiya o'qituvchisini tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Drake, S. M. (2007). Creating standards-based integrated curriculum: Aligning curriculum, content, assessment, and instruction. Corwin Press.
2. Vahobov, H., Alimqulov, N. R., & Sultanova, N. B. (2021). Geografiya o'qitish metodikasi. Nodirabegim.
3. Usmonqulov, Sh. (2023). Integrativ yondashuv asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish [Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati]. Chirchiq.
4. Dewey, J. (1916). Democracy and education: An introduction to the philosophy of education. Macmillan.
5. Amonov, X. N. (2023). Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish metodikasi [Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati]. Toshkent.
6. Vygotsky, L. S. (2012). The collected works of L. S. Vygotsky: Scientific legacy. Springer.
7. Temirov, N. O. (2023). Integrativ yondashuv asosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarini tayyorlash metodikasi: Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida [Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati]. Chirchiq.
8. Gardner, H. (2024). The essential Howard Gardner on mind. Teachers College Press.
9. Ochilova, G. O., & Akbarova, S. Sh. (2022). Kasbiy kompetentlik. Toshkent.
10. Stock, K., Cola, P., & Kolb, D. (2024). Educational experiences become experiential when the learner is fully present. *Experiential Learning and Teaching in Higher Education*, 7(1), 82–97.
11. Rajabov, F. T. (2024). Zamonaviy yondashuvlar vositasida bo'lajak geografiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari [Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi]. Toshkent.
12. Abu Rayhon Beruniy. (1965). Tanlangan asarlar: Hindiston (II jild). O'zbekiston Fan nashriyoti.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.